yopiq tekshiruv savollari va milliy belgini individual yechimdan ajratuvchi tashqi tasdiq mezoni zaruriy shart bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Derrida J. The Animal That Therefore I Am (More to Follow). Trans. by D.Wills. Critical Inquiry. Chicago, 2002, vol. 28, № 2, p. 369–418.

(2). Moe A.M. Zoopoetics: Animals and the Making of Poetry. Lanham: Lexington Books, 2014, 170 p.

(3). Herman D. Narratology beyond the Human: Storytelling and Animal Life. New York, Oxford University Press, 2018, 384 p.

(4). Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980, 242 p.

(5). Borgards R. Introduction: Cultural and Literary Animal Studies. Journal of Literary Theory. Berlin, 2015, vol. 9, № 2, p. 155–160.

(6). Jalolov G‘. O‘zbek xalq ertaklari poetikasi. Monografiya, Toshkent, “Fan”, 1976, 158-bet.

(7). Xoshimova O.O. O‘zbek va ingliz tillarida zoonimik frazeologik birliklarning leksik-semantik va leksikografik tadqiqi. Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoreferati, Namangan, 2025, 58-bet.

(8). Driscoll K., Hoffman E. Introduction: What Is Zoopoetics? What Is Zoopoetics? Texts, Bodies, Entanglement. Cham: Palgrave Macmillan, 2018, p. 1–13.

(9). Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. Roman, Toshkent, “Sharq”, 2012, 624-bet.

(10). Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. Qissa va hikoyalar. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2019, 336-bet.

Otebaeva Dilbar Ayapbergen kizi (Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi)

QORAQALPOQ EKOLOGIK TERMINOLOGIYASIDA ARAB VA FORS O‘ZLASHMALARINING O‘RNI

Annotatsiya*. Ushbu maqolada qoraqalpoq ekologik terminologiyasida arab va fors tillaridan o‘zlashgan leksik birliklarning o‘rni va lingvistik xususiyatlari tadqiq etilgan. Arab va fors tillari bilan uzoq tarixiy-madaniy aloqalar natijasida qoraqalpoq tilining lug‘at tarkibiga kirib kelgan o‘zlashmalar ekologik terminologiyaning shakllanishida ahamiyatga ega. Tadqiqotda arab va fors o‘zlashmalarining ekologik tushunchalarni ifodalashdagi xususiyatlari, semantik mazmuni va terminologik tizimdagi qo‘llanish doirasi tahlil qilingan. Shuningdek, o‘zlashma terminlarning qoraqalpoq tilining fonetik, morfologik va semantik xususiyatlariga moslashish jarayonlariga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *qoraqalpoq tili, ekologik terminologiya, arab o‘zlashmalari, fors o‘zlashmalari, ekologik terminlar, o‘zlashma birliklar, semantika, terminologiya.*

РОЛЬ АРАБСКИХ И ПЕРСИДСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ КАРАКАЛПАКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация*. В данной статье исследуются место и лингвистические особенности лексических единиц, заимствованных из арабского и персидского языков, в каракалпакской экологической терминологии. Заимствования, вошедшие в словарный состав каракалпакского языка в результате длительных историко-культурных связей с арабским и персидским языками, играют важную роль в формировании экологической терминологии. В исследовании проанализированы особенности арабских и персидских заимствований в выражении экологических понятий, их семантическое содержание и сфера применения в терминологической системе. Также уделено внимание процессам адаптации заимствованных терминов к фонетическим, морфологическим и семантическим особенностям каракалпакского языка.*

Ключевые слова: *каракалпакский язык, экологическая терминология, арабские заимствования, персидские заимствования, экологические термины, заимствованные единицы, семантика, терминология.*

THE ROLE OF ARABIC AND PERSIAN BORROWINGS IN KARAKALPAK ECOLOGICAL TERMINOLOGY

Annotation. *This article investigates the role and linguistic features of lexical units borrowed from Arabic and Persian in Karakalpak ecological terminology. Borrowings that entered the vocabulary of the Karakalpak language as a result of long historical and cultural ties with Arabic and Persian play an important role in the formation of ecological terminology. The study analyzes the features of Arabic and Persian loanwords in expressing environmental concepts, their semantic content, and the scope of their application within the terminological system. Attention is also paid to the processes of adaptation of borrowed terms to the phonetic, morphological and semantic features of the Karakalpak language.*

Keywords: *Karakalpak language, ecological terminology, Arabic loanwords, Persian loanwords, ecological terms, borrowed units, semantics, terminology.*

Kirish. Bugungi kunda ekologik muammolarning global miqyosda dolzarblashuvi atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik jarayonlarni ilmiy jihatdan tadqiq etishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Bu jarayon ekologiya sohasiga oid tushunchalarni aniq ifodalovchi terminlarning shakllanishi va rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Harbir tilning ekologik terminologiyasi uning tarixiy taraqqiyoti, boshqa tillar bilan aloqasi hamda ichki leksik imkoniyatlari asosida tarkib topadi.

Qoraqalpoq tilidagi ekologik terminologiya ham turli manbalar hisobiga boyib borgan. Xususan, arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlar qoraqalpoq tilining lug'at tarkibida tarixiy jihatdan muhim qatlamni tashkil etadi. Ushbu tillardan kirib kelgan ayrim birliklar, keyinchalik, ekologik mazmun kasb etib, tabiat, yer-suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy jarayonlar hamda atrof-muhit bilan bog'liq tushunchalarni ifodalashda qo'llanila boshlagan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Arab va fors tillaridan o'zlashgan ekologik terminlarni o'rganish nafaqat ularning etimologik manbasini aniqlash, balki qoraqalpoq tilida qanday fonetik, morfologik va semantik o'zgarishlarga uchragini belgilash imkonini beradi. Shu jihatdan, mazkur terminlarning til tizimiga moslashuvi, ma'no taraqqiyoti va hozirgi ekologik terminologiyadagi funksional xususiyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada qoraqalpoq tilidagi arab va fors tillaridan o'zlashgan ekologik terminlarning shakllanish manbalari, morfologik tuzilishi hamda semantik xususiyatlarini tahlil qilishga e'tibor qaratiladi.

Turkiy tillar leksik tarkibining shakllanishi va taraqqiyotida boshqa tillar bilan bo'lgan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy munosabatlar muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, arab va fors-tojik tillari bilan uzoq davom etgan til va madaniy aloqalar natijasida ushbu tillarga mansub ko'plab leksik birliklar turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili lug'at tarkibiga faol kirib kelgan. Shu jihatdan, arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlar o'zbek tili leksikasining salmoqli qatlamini tashkil etib, uning lug'aviy boyishida muhim manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur o'zlashmalar nafaqat umumiste'mol leksikasida, balki fan, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy-siyosiy hayot va turli terminologik tizimlarda ham keng qo'llanib, o'zbek tilining leksik-semantik taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Xususan, o'zbek tilida G'. Abdurahmonov, A.Qayumov, B.Eshonqulov kabi tadqiqotchilar ilmiy ishlarida arab va fors tillarining semantik qatlamdagi o'rni o'rganilgan. Qoraqalpoq tilshunosligida esa N.A.Baskakov, E.Berdimuratov, O. Bekbaulov kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida qoraqalpoq tiliga arab va fors tilidan kirgan so'zlar tahlil qilingan. Q.Paxratdinov va A.Otemisov hammuallifligida nashr etilgan "Qaraqalpaq tilindegi shıǵısı arabsha sózler", "Qaraqalpaq tilindegi shıǵısı parsısha sózler" kabi ilmiy asarlarida arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlar keltirilgan. Qoraqalpoq tilida ekologik terminlarning tarixiy kelib chiqishi ilmiy asosda to'liq o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qoraqalpoq tilidagi arab va fors tillaridan o'zlashgan ekologik terminlarning shakllanishi, lug'aviy tarkibi, semantik xususiyatlari va qo'llanish doirasini aniqlash maqsadida tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, etimologik hamda komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbalarini o'zbek tilining izohli va terminologik lug'atlari, ekologiyaga oid ilmiy adabiyotlar, shuningdek, arab va fors tillariga oid lug'aviy manbalarda qayd etilgan birliklar tashkil etdi. Tavsifiy metod yordamida arab va fors tillaridan o'zlashgan ekologik terminlarning hozirgi o'zbek tilidagi shakli va qo'llanish xususiyatlari tahlil qilindi. Qiyosiy-tarixiy metod asosida terminlarning o'zbek tiliga o'zlashish jarayoni hamda ularning manba tillardagi shakl va ma'nolari bilan munosabati aniqlandi. Etimologik tahlil orqali ekologik terminlarning kelib chiqish manbasi belgilandi. Shuningdek, komponent tahlil vositasida ayrim terminlarning tarkibiy qismlari va ularning semantik xususiyatlari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida o'zlashgan terminlar mavzu va ma'no jihatidan guruhlashtirilib, ularning ekologiyaning turli yo'nalishlariga mansubligi aniqlashtirildi. Olingan natijalar asosida arab va fors tillaridan o'zlashgan birliklarning o'zbek ekologik terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni ilmiy jihatdan yoritildi.

Tahlil va natijalar. Ekologik terminlarning tarixiy kelib chiqishi haqida so'z yuritilganda, ularning etimologiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Lekin arab, fors tillaridan kirib kelgan so'zlar davrlar o'tishi bilan o'z so'zlik qatlamiga o'tib, tub so'zlar kabi qo'llaniladi. Qoraqalpoq tilining lug'at tarkibida tub so'zlarimiz bilan bir qatorda arab, fors tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Arab tilidan o'zlashgan ekologik terminlarga quyidagilar kiradi: *hawa, nur, tábiyat, násil, samal, boz (jer)* kabi birqator terminlar kiradi.

Hawa – bu atama arabcha "havoun" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, *"atmosfera, hawa, samal, klimat,hawa rayı"* kabi ma'nolarni anglatadi [1;559-b.]. Shuningdek, havo so'zi qoraqalpoq tilida 4 xil ma'noda qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin: 1) rangsiz, ta'msiz, ko'zga ko'rinmaydigan, butun yer sharini qoplab turgan azot va kislorod kabi gazlar aralashmasidan iborat modda; 2) yer ustidagi havo bilan to'lgan bo'shliq; 3) osmon; 4) atmosferaning holati, ob-havo, iqlim.

Hawanıń ıǵallıǵı – havodagi suv bug'ining miqdori. U maxsus psixrometr deb nomlanuvchi asbob bilan o'lchanadi. Havodagi suv bug'ining miqdori, ya'ni havoning namligi, havo haroratiga va namlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Tábiyat – inson ongi doirasidan tashqarida, olamning evolyutsion rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan, bizni o'rab turgan dunyo. Bu atama arab tilidagi "tabiyatun" *"tábiyat, tábiyiy zatlar"* so'zidan kirib kelgan bo'lib, *"dúnyadaǵı barlıq nárselerdiń hámmesi"* degan ma'noni anglatadi.

Násil – tirik organizmlarning o'z belgilarini avlodga o'tkazish xususiyati. *Násil* so'zi arab tilidan kirib kelgan bo'lib, *"bir awladqa tiyisli"* degan ma'noni bildiradi. Nasl so'ziga so'z yasovchi affikslar qo'shilishi orqali yangi ma'nodagi *násillik* so'zi paydo bo'lgan va bu ham atama sifatida qo'llaniladi.

Samal – arab tilidagi "shimolun, shamalun" so'zidan olingan bo'lib, *"arqa tárep, arqadan esken samal"* degan ma'noni bildiradi. Havoning bir tomondan ikkinchi tomonga urilishi, harakatlanishi, ya'ni yel [2;34-b.].

Kebir termini arab tilidan olingan bo'lib, qoraqalpoq tilida *"beti duzlı shor jer"* degan ma'noga ega. Kebir yerlarning tuproq qatlami sho'r bo'lganligi sababli, bunday yerlarda ekin unmaydi [3;36-b.].

Boz atamasi arab tilidan olingan bo'lib, "islenbegen, egiske tayarlanbaǵan" degan ma'noni bildirgan. Turkiy tillarda bu so'z "egin egilmey qalǵan jer" ma'nosida qo'llaniladi [1;79-b.].

Qoraqalpoq tilida *"shól"* so'zining sinonimi sifatida qo'llanadigan *sahra* so'zi ham arab tilidan olingan. Tabiat hodisalaridan birini anglatuvchi "sel" atamasi arabchada "saylun", fors tilida esa "seyl" shaklida qo'llanilgan. Arab tilida *"suw aǵımı"* ma'nosini bildiruvchi bu atama o'zbek tilida "kuchli yomg'ir va uning oqibatida yuzaga keladigan shiddatli suv oqimi" ma'nosini anglatadi [4;383-b.]. "Qoraqalpoq tilining izohli lug'ati"da bu so'zga quyidagicha izoh berilgan: "Sel – jawın, jańbır, jawın suwınan payda bolatuǵın aǵın suw" [5;197-b.]. Shuningdek, dehqonchilik ishlariga oid *zúráát* so'zining kelib chiqishi ham arab tiliga borib taqaladi. Bu so'z arab tilida "ziraatun" shakliga ega bo'lib, *"egin, diyqanshılıq"* degan ma'nolarni anglatadi [1;148-b.].

Saratan atamasi ham kelib chiqishi jihatidan arab tilidan o'zlashgan. Saraton o'n ikki burjdan to'rtinchisining nomidir. Hijriy yil hisobi bo'yicha to'rtinchi oy shunday ataladi va bu oy yozning eng issiq kunlariga to'g'ri keladi [1;377-b.].

Jabayı haywanlar – tabiatda insonning aralashuvisiz, ishtirokisiz hayot kechiruvchi hayvonlardir. Yovvoyi hayvonlar tabiatning ko'rki, tabiatning bizga bergan in'omi, ajralmas bir qismidir. Bu termindagi "yovvoyi" komponenti qadimgi turkiy tildagi "sahro" ma'nosini anglatuvchi "yava" so'zidan kelib chiqib, "o'z-o'zicha yashovchi", "qo'lga o'rgatilmagan, odam qo'li bilan yaratilmagan" degan ma'nolarni bildiradi [4;235-b.]. Shuningdek, bu qo'shma terminning ikkinchi komponenti "hayvon" so'zi bo'lib, u arabcha "hayvonun" so'zidan kelib chiqqan va "odamzotdan boshqa jonli jonzotlar, yirtqich, jabrdiyda" degan ma'nolarni anglatadi.

Tábiyiy tańlaw – organizmlar evolutsiyasining asosiy harakatlantiruvchi omilidir. Tabiiy tanlanish haqidagi ta'limotni Ch.Darvin yaratgan. Bu ta'limotga ko'ra, u yashash uchun kurash natijasi bo'lib, bunda organizmlarning har bir turiga mansub individlarning eng yaxshi moslashganlari yashab qoladi. Bu termin tarkibidagi *"tábiyiy"* so'zi arab tilidan kirib kelgan bo'lib, "haqiqiy, yasama emas, qonuniy, tabiatning o'zida mavjud" degan ma'nolarni bildiradi. Tańlaw so'zi esa turkiy so'z bo'lib, "qandaydir bir narsa orasidan xohlaganini tanlash" degan ma'noda qo'llanadi. Demak, bu termin arab va turkiy so'zlarning birikuvidan yasalgan [6;311-b.].

Qoraqalpoq tilining lug'at tarkibida arab tilidan kirgan so'zlar bilan bir qatorda, fors tilidan o'zlashtirilgan so'zlar ham uchraydi. Bu guruhga kiruvchi so'zlar ham tub so'zlar singari samarali qo'llanilaveradi.

Fors tilidan kirgan ekologik terminlarga *izeykesh, neft, partaw, páshek, puta, saz, sora, shor* kabi so'zlar kiradi. *Nál* – ko'kargandan so'ng yerga ko'chirib o'tqazish uchun issiqxonalarda o'stirilgan o'simlik. Bu so'z fors tilidan kirgan bo'lib, *"jaǵadan otırǵızılǵan terek, náwshe"* degan ma'noni bildiradi. Shuningdek, tilimizda *partaw* termini ham tez-tez qo'llaniladi. Partaw fors tilida "partav" – *egin egilmegen jer* degan ma'noni anglatadi [7;26-b.] va *partaw jer* birikmasi shaklida ishlatiladi.

Shu bois qo'shma turdagi ekologik terminlarning tarixiy kelib chiqishiga e'tibor qaratganimizda, qo'shma so'z tarkibidagi qismlar boshqa tillardan kirgan so'zlar bo'lib, tub so'zlar bilan birikib, ekologi-

yaga oid terminologik ma'noni yuzaga keltirishini ko'ramiz. Masalan: *shor* termini fors tilidan olingan bo'lib, *"duzli, duzı kóp"* degan ma'noni bildiradi [7;38-b.]. Bu termin, asosan, tuproq yoki suv tarkibida tuz miqdorining ortib ketganligini bildirish maqsadida qo'llaniladi: *shor suw, shor topıraq.*

Shorlanıw – tuproqda o'simliklarning shakllangan hayotiga putur yetkazadigan, umuman, hayot uchun ham zararli tuzlarning ko'p miqdorda to'planishi [8;54-b.].

Shuningdek, o'simlik nomlaridan *sora* nomi ham fors tilidan kirgan. Bu so'z fors tilida shuvra *shuvra "shor jer, izey jer"* degan ma'noni anglatadi [7;31-b.]. Hozirgi qoraqalpoq tilida "japıraqlarınıń ústi jıltıraq, astı kúl reń jabayı shóp" degan ma'noni bildiradi.

Qorǵanısh reń – hayvonlarning rangi, rangining o'zlari yashaydigan muhitning rangiga mos kelishi. Buning natijasida ular dushmanlariga ko'rinmay omon qoladi. Bu qo'shma termindagi mudofaa so'zi qadimgi turkiy tildan kirib kelgan. Rang so'zi esa tojik tilidan kirib kelib, *"boyaw"* degan ma'noni bildiradi.

Záhárli ósimlikler – turli organlardagi hayvonlarni zaharlab, hatto o'ldirib yuborishi mumkin bo'lgan zahari bor modda o'simliklar. Shunday zaharli o'simliklar bu orqali o'zlarini himoya qiladi. Bu qo'shma termindagi zahar so'zi tojik tilidan kirib kelib, *"júdá ashshı"* degan ma'noni bildiradi. O'simlik so'zi ham qadimgi turkiy tildan kirib kelib, *"egin, ot-shóp, terek"* degan ma'nolarni bildiradi.

Izeykesh atamasi fors tilidan olingan bo'lib, *zek "duz, duzlı"+kach "qarıq, tap"* izey suv oqadigan yoki saqlanadigan joy, drenaj [7;16-b.].

Puta nomi "buta" so'zidan olingan bo'lib, "túbinen shaqalap ósetuǵın mayda kelte terek" [7;29-b.] degan ma'noni anglatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qoraqalpoq ekologik terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishida arab va fors tillaridan o'zlashgan leksik birliklar muhim o'rin egallaydi. Ushbu o'zlashmalar tarixiy-madaniy va ilmiy aloqalar natijasida tilimiz lug'at tarkibiga kirib, ekologiyaga oid turli tushunchalarni ifodalashda faol qo'llanib kelmoqda.

Tahlillar jarayonida arab va fors tillaridan o'zlashgan ekologik terminlarning semantik hamda struktur xususiyatlari aniqlanib, ularning ayrimlari o'zbek tilining ichki qonuniyatlari asosida ma'no jihatdan ixtisoslashgani kuzatildi. Mazkur birliklar o'zbek ekologik terminologiyasining boyishi va takomillashuvida muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ularni etimologik va semantik jihatdan tadqiq etish ekologik terminlarni tartibga solish va unifikatsiyalash uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Тошкент, «Университет», 2003, 559-бет.

(2). Пахратдинов Қ., Өтемисов А. Қарақалпақ тилиндеги шығысы арабша сөзлер. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2015

(3). Қурбанов М.Д. Қарақалпақ тилиндеги географиялық терминлердиң лексика-грамматикалық өзгешеликлери. Фил. канд. дис., Нөкис, 2011.

(4). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Тошкент, «Университет», 2009,

(5). Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1992,

(6). Salimov X.V. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish bo'yicha atama va tushunchalarning izohli lug'ati. Toshkent, 2009.

(7). Пахратдинов Қ., Өтемисов А. Қарақалпақ тилиндеги шығысы парсыша сөзлер. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2017.

(8). Қосанов О., Қосанов С. Экология терминдерінің түсіндірме сөздігі. Алматы, "Шартарап", 2000.

Xolmuradova Jamila Irmetovna (Toshkent Amaliy fanlar universiteti dotsenti, f.f.n.;
(jamilaxalmuratova66@gmail.com)

XORAZM DOSTONLARI TILIDA NUTQIY TA'SIRCHANLIKNING LINGVOPRAGMATIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm dostonlari tilidagi nutqiy vositalarning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda murojaat, duo, qarg'ish, buyruq, nasihat, dialog va monologlar, maqol-matal hamda idiomalarning kommunikativ va ta'sirchanlik funksiyalari yoritiladi. Shuningdek, nutqiy birliklarning tinglovchiga ruhiy, ijtimoiy va tarbiyaviy ta'siri hamda xalqning nutqiy madaniyati va kommunikativ tajribasini ifodalashdagi o'rni ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Xorazm dostonlari, lingvopragmatika, nutqiy vositalar, nutqiy ta'sir, kommunikativ qiymat, dialog, monolog, maqol-matal, idioma, murojaat, duo, qarg'ish.*